
№2 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№2 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA QONUNLARNING O‘RNI VA TA’SIRI

Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
psixologiya yo‘nalishi talabasi
marhaboxontohirjonovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi amaldagi qonunlarning fuqarolarning psixologik barqarorligi va ruhiy salomatligini ta’minlashdagi o‘rni psixologik resurs sifatida tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri qabul qilinishi natijasida inson huquq va erkinliklarining mustahkamlanishi, ijtimoiy adolat tamoyillarining kuchayishi hamda huquqiy kafolatlarning kengayishi fuqarolarning xavfsizlik hissi, ijtimoiy ishonchi va psixologik barqarorligiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi. Shuningdek, huquqiy barqarorlikning shaxs ruhiy salomatligi va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: psixologik barqarorlik, ruhiy salomatlik, psixologik resurs, huquqiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik, xavfsizlik.

Аннотация. В данной статье анализируется роль действующих законов Республики Узбекистан как психологического ресурса, обеспечивающего психологическую устойчивость и психическое здоровье граждан. Особое внимание уделяется влиянию принятия новой редакции Конституции Республики Узбекистан на укрепление прав и свобод человека, расширение правовых гарантий и усиление принципов социальной справедливости. Рассматривается их воздействие на чувство безопасности, социальное доверие и психологическую устойчивость граждан. Также научно обосновывается значение правовой стабильности в обеспечении психического здоровья личности и общественного благополучия.

Ключевые слова: психологическая устойчивость, психическое здоровье, психологический ресурс, правовая стабильность, социальное благополучие, безопасность.

Abstract. This article analyzes the role of the current legislation of the Republic of Uzbekistan as a psychological resource that contributes to citizens’ psychological resilience and mental well-being. Particular attention is paid to the impact of the adoption of the new edition of the Constitution of Uzbekistan on strengthening human rights and freedoms, expanding legal guarantees, and reinforcing the principles of social justice.

The study highlights how these factors influence individuals' sense of security, social trust, and psychological stability. Furthermore, the significance of legal stability in ensuring mental health and social well-being is theoretically substantiated.

Keywords: psychological resilience, mental health, psychological resource, legal stability, social well-being, security.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida siyosiy tizimning barqarorligi, huquqiy me'yorlarning izchilligi va inson huquqlarining uzluksiz kafolatlanishi jamiyatning psixologik farovonligida hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Zamonaviy psixologiya va siyosiy fanlar kesishmasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy tizimning barqarorligi shaxsning ruhiy holati, stressga chidamliligi, ijtimoiy xavfsizlik hissi va kelajakni prognozlash qobiliyatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, "Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi!" degan tamoyil nafaqat siyosiy-huquqiy yondashuv, balki psixologik barqarorlikning ham markaziy tushunchasiga aylanmoqda [2].

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023-yil) inson qadrini yuksaltirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, huquq va erkinliklarning kengaytirilgan kafolatlarini ta'minlash orqali demokratik jamiyatning psixologik asoslarini mustahkamlaydi. Yangi huquqiy normalar nafaqat davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtiradi, balki shaxsning ruhiy salomatligiga ijobiy ta'sir etadigan huquqiy xavfsizlik muhitini shakllantiradi. Bu esa psixologiyada "psixologik barqarorlik", "subyektiv farovonlik", "ichki nazorat lokusi", "psixologik xavfsizlik", "barqaror identifikatsiya" kabi ko‘rsatkichlarning o‘sishiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada tahlil qilinayotgan psixologik resurslar shaxsning stressli vaziyatlarga bardosh berish, ijtimoiy tizimga moslashish, o‘z hayoti ustidan nazoratni his qilish va muammolarni konstruktiv hal etishida yordam beradigan ichki va tashqi omillardir. Konstitutsiyaning barqarorligi, undagi ijtimoiy kafolatlarning kuchaytirilishi, inson huquqlarining aniq belgilanishi aynan shunday resurslardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma'noda, yangi Konstitutsiyada aks etgan huquqiy me'yorlar shaxsda xavfsizlik hissi, davlatga bo‘lgan ishonch, kelajakka ijobiy qarash, ijtimoiy barqarorlikni idrok etish kabi psixologik holatlarni mustahkamlashi mumkin.

Mazkur maqola ushbu jarayonning mexanizmlarini chuqur tahlil qilib, huquqiy kafolatlar va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda yoritishni maqsad qiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Konstitutsiya davlatning huquqiy tizimini belgilovchi, jamiyat hayotining asosiy tamoyillari va fuqarolarning fundamental huquqlarini kafolatlovchi oliy hujjat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri (2023) shaxsning huquqiy maqomini yanada mustahkamlab, “inson-jamiyat-davlat” tamoyilini asosiy g‘oya sifatida belgiladi. Bu tamoyil jamiyatning siyosiy-huquqiy barqarorligini ta’minlash bilan birga, fuqarolarning psixologik farovonligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Konstitutsiyaning bir qator moddalarida shaxsning daxlsizligi, xavfsizligi, farovon hayot kechirish huquqi mustahkamlangan. Jumladan, 27-modda - har bir insonning shaxsiy hayoti, sha’ni va qadr-qimmati himoya qilinishi, 31-modda - har bir fuqaroning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘ini saqlash huquqi, 42-modda - har bir shaxsning munosib turmush darajasiga ega bo‘lishi, 46-modda - davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash majburiyati kabi qator normalar shaxsda ichki xavfsizlik, ishonch va barqarorlik tuyg‘ularining shakllanishida asosiy psixologik omil sifatida xizmat qiladi [1].

Xorij olimlari Abraxam Maslou, Erik Erikson va S. Hobfollning psixologik tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, huquqiy barqarorlik shaxsning fundamental psixologik ehtiyojlari bo‘lgan xavfsizlik, boshqaruv hissi va nazorat illyuziyasini mustahkamlaydi. Barqaror normativ muhit shaxsning stress darajasini pasaytiradi, kelajakka ishonchni oshiradi, psixologik barqarorlik va emotsional muvozanatni saqlashga yordam beradi [4].

Psixologiyada “resurs” tushunchasi shaxsning stressga bardoshliligini oshiruvchi ichki va tashqi imkoniyatlar majmuasini bildiradi (Hobfollning Conservation of Resources Theory nazariyasi). Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi aynan shaxsning psixologik resurslariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan normativ asoslarni yaratadi. Masalan, 65-modda - davlatning shaxs manfaatlari va erkinliklarini ta’minlash majburiyati, 67-modda - davlat organlarining fuqarolar oldida hisobdorligi va ochiqligi, 70-modda - yoshlarga yaratiladigan imkoniyatlar va ijtimoiy kafolatlar kiradi [1]. Bu normalar shaxsda “men himoyalanganman”, “mening davlatim men uchun mas’ul”, “mening ovozim bor” kabi ijobiy ijtimoiy-psixologik hissiyotlarni kuchaytiradi. Shu tarzda Konstitutsiya psixologik resurs sifatida namoyon bo‘lib, shaxsning stressga bardosh berish qobiliyatini, kelajak rejalari bo‘yicha ishonchini, ijtimoiy faolligini va ichki motivatsiyasini oshiradi.

Zamonaviy siyosiy psixologiya va huquqiy sotsiologiyada Beck, Tyler, Hobfoll, Norris kabi olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, jamiyatdagi huquqiy barqarorlik indeksining o‘sishi quyidagi psixologik ko‘rsatkichlarning kuchayishiga olib keladi: stress darajasining pasayishi, ijtimoiy ishonchning oshishi, fuqarolarning xavfsizlik hissining kuchayishi va psixologik farovonlikning yaxshilanishi [4]. Shuningdek, yangi konstitutsion normalar fuqarolarning o‘z hayoti ustidan nazorat hissini oshiradi. Nazorat hissi psixologik salomatlikning eng barqaror prediktorlaridan biri hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi (2023) ijtimoiy-huquqiy jarayonlarda sezilarli o‘zgarishlar yaratdi. Quyidagi amaliy natijalar konstitutsion kafolatlarning fuqarolar psixologik farovonligiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi: Konstitutsiyaning 49-moddasi - “Mehnat qilish huquqi”, 52-moddasi - “Ijtimoiy ta’minot huquqi” hamda 67-moddasi - “Davlatning yoshlar bilan ishlash borasidagi majburiyatlari” kabi ijtimoiy yo‘naltirilgan normalari natijasida 2023-2025-yillarda o‘rtacha aholi daromadlari real qiymatda 8-10 foizga oshgan. Yosh oilalarning uy-joyga ega bo‘lishi bo‘yicha imtiyozli kreditlar kengayib, ipoteka olgan yoshlar soni 35 foizga ko‘paygan. Aholining davlat xizmatlariga ishonchi bo‘yicha indeks 2022-yildagi 58 foizdan 2024-yilda 71 foizga oshgan [5]. Ijtimoiy farovonlik o‘sishi - bu psixologik farovonlikning asosiy omillaridan biri sifatida kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi Konstitutsiyada “Xalq - davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi” tamoyili mustahkamlandi. Bu fuqarolar ongida faollik resursining kuchayishiga olib keldi. Masalan, 2023-yil referendumida qatnashish darajasi 84,5 foizni tashkil etdi, bu fuqarolarning konstitutsion jarayonga tarixiy darajada faol jalb etilganini ko‘rsatadi. 2024-yil saylovlarida qatnashish faolligi avvalgi davrlarga nisbatan 12 foizga yuqori bo‘ldi. Yoshlar o‘rtasida “konstitutsion madaniyat” bo‘yicha treninglar va ta’lim dasturlarida ishtirok etish ikki baravar oshdi [3, 5]. Psixologiyada fuqarolik faolligi “subyektiv nazorat hissi”ni oshiradi va stressni kamaytiradi.

Konstitutsiyaning 65- va 67-moddalarida oilani qo‘llab-quvvatlash, bolalar manfaatlari va yoshlar salohiyatini yuksaltirish alohida kafolatlangan. Natijada yosh oilalar orasida iqtisodiy xavotirlar indeksi 14 foizga kamaygan. Oilaviy stress omillari bo‘yicha “yuqori xavotir” guruhidan “o‘rtacha xavotir” guruhiga o‘tganlar ulushi 22 foizni tashkil etdi [3, 5]. Bu o‘zgarishlar Konstitutsiyaning huquqiy kafolatlar orqali ruhiy salomatlikni bilvosita mustahkamlashini ilmiy asoslaydi va ijtimoiy siyosatning psixologik ta’sir kuchiga ega ekanini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari yangilangan Konstitutsiyaning nafaqat huquqiy, balki psixologik resurs sifatidagi funksiyasini ham chuqur namoyon qiladi.

Huquqiy barqarorlikning kuchayishi fuqarolarning ruhiy mustahkamligi va ijtimoiy ishonchining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan omil ekanini ilmiy ma’lumotlar bir necha bor tasdiqlagan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan inson huquqlarining kafolatlanishi kengaydi, davlatning ijtimoiy majburiyatlari kuchaydi, fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi, bu esa ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlovchi resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologiya fanida xavfsizlik hissi shaxsning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri sifatida qaraladi. Yangi Konstitutsiya fuqarolar ongida aynan mana shu “psixologik xavfsizlik”ni kuchaytiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada aholi o‘rtasida kelajakka nisbatan ishonchning ortishi, davlat institutlariga ishonchning tiklanishi, stress darajasining pasayishi kabi ijobiy o‘zgarishlar o‘z tasdig‘ini topdi. Bu holat Lazarusning kognitiv baholash nazariyasini to‘liq tasdiqlaydi - inson o‘z hayoti ustidan nazorat borligini his qilsa, xavotir darajasi sezilarli pasayadi.

Shuningdek, Konstitutsiya o‘z-o‘zidan emas, amaliyot orqali psixologik resursga aylanadi. Shu sababli Konstitutsiya nafaqat huquqiy asos, balki kundalik hayotda real o‘zgarishlar orqali shaxs ruhiyatini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ishlaydi.

XULOSA

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” bu nafaqat huquqiy haqiqat, balki jamiyat psixologik farovonligining ham asosiy mezonidir. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarining daxlsizligini mustahkamlash, ijtimoiy himoya, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasida keng ko‘lamli kafolatlarni joriy etishi bilan ruhiy barqaror hayot uchun zarur zamin yaratdi.

Ushbu maqolada o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsiya jamiyatda faqat huquqiy tizimning poydevori bo‘lib qolmay, balki shaxslar uchun psixologik resurs sifatida ham xizmat qiladi. Huquqiy barqarorlik, adolatga ishonch, ijtimoiy himoyaning kengayishi va davlat tomonidan fuqarolarga berilgan kafolatlarning oshishi natijasida odamlarning xavfsizlik hissi mustahkamlanib, stress omillariga nisbatan bardoshlilik ortadi. Bu esa psixologik farovonlikning asosiy tarkibiy qismi sanaladi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar ruhiy salomatlikning oshishiga bevosita ta’sir etmoqda: odamlar o‘z kelajagi, farzandlari

ta’limi, sog‘lig‘i va mehnat huquqlarining kafolatlanganini his qilgan sari ijtimoiy ishonch darajasi yuksalmoqda.

Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyaning 13-, 27-, 29-, 55- va 78-moddalaridagi inson sha’ni, erkinligi, ijtimoiy himoya va tenglikka doir normalar fuqarolarning psixologik barqarorligini ta’minlovchi kuchli omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi Konstitutsiya O‘zbekistonda huquqiy demokratik jamiyatni rivojlantirish bilan birga, fuqarolarning ruhiy farovonligi, ijtimoiy ishonchi va kelajakka bo‘lgan umidini mustahkamlovchi kuchli psixologik omilga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi. Konstitutsiya O‘zbekiston. 2023-yil.
2. Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi! - O‘zbekiston Respublikasi Milliy huquqiy markazi. 2024-yil.
3. Yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasi - barqaror taraqqiyot kafolati. https://yuz.uz/ 2023
4. Atadjanov M.Y. “Xavfsizlik psixologiyasi” dasrlik. Farg‘ona.: 2024-y.
5. https://stat.uz/uz/ , https://constitution.uz/oz , https://lex.uz/uz/

YOSHLAR HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISH – HUQUQIY NIGILIZMGA QARSHI KURASHNING USTUVOR OMILI Turdiyev Bexruz Sobirovich	6
TA'LIM JARAYONIDA AKADEMIK STRESS VA UNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich	**12**
ZAMONAVIY YOSHLARDA O'ZIGA BAHONI ADEKVATLASHTIRISH ORQALI STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna., Ismoilova Moxinur Kamilovna	**17**
АЛГОРИТМ ПРОВЕДЕНИЯ НАРРАТИВНО-ЭКСПОЗИЦИОННОЙ ТЕРАПИИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ДЕТЕЙ, ПЕРЕЖИВШИХ ТРАВМАТИЧЕСКИЙ ОПЫТ В УСЛОВИЯХ ТЕРРОРИСТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ Юлдашев Санжар Рузимуродович	**25**
OLIMPIYA TERMA JAMOASI SPORTCHILARINI MUSOBAQAOLDI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	**38**
IJTIMOIY TARMOQLARDA YOLG'ON AXBOROTLARGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA NAMOYON BO'LISH MEXANIZMLARI Nurmatov A.N	**46**
O'SMIR SUZUVCHILARDAGI ICHKI NIZOLAR VA ULARNING SPORT FAOLIYATIGI TA'SIRI Mavlanov Donyor Ergash o'g'li	**54**
YOSHLARNI NIKOH YOSHI HAQIDAGI ADEKVAT TASAVVURLARI OTA-ONA OILASIDAGI MA'NAVIY MUHITNING BARQARORLIGIGA MOSLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEZONLARI Abdullayeva Aropatxon Rustamovna	**61**

BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDAGI KOGNITIV, HISSIY-MOTIVATSION VA PEDAGOGIK OMILLAR Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**67**
DINIY KONTENTNING RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA SHAXS ONGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI Soliyev Otabek Davlatjon o'g'li	**73**
MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARGA O'QUV MATERIALLARINI MUSTAQIL O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	**85**
ONALIK FENOMENI: FANLARARO TALQIN VA OILAVIY-PEDAGOGIK MAZMUNI Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna	**91**
PRAGMALINGUISTIC ASPECTS OF ENGLISH AND UZBEK PRINT AND ONLINE NEWS TEXTS Istamova Dilnoza Sadulloyevna	**100**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA QONUNLARNING O'RNI VA TA'SIRI Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi	**106**

LIDERLIK – ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA

(Mavzu bosh harflarda, Times New Roman 14 shriftda, 12 ta so‘zdan oshmagan holda)

Abdullayev Abdulla Abdullayevich
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, psixologiya fanlari doktori

(Muallif F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvoni Times New Roman 14 shriftda to‘liq yozilishi kerak)

Annotatsiya: Maqolaga annotatsiya o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi lozim. Annotatsiya maqolaning qisqacha mazmunini yoritib berishi, unda tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, metodologiyasi, asosiy natijalari hamda ilmiy-amaliy ahamiyati qisqacha aks ettirilishi talab etiladi. Annotatsiya hajmi 100-150 ta so‘zdan oshmagan, bir butun matn shaklida yozilishi, unda iqtiboslar, jadvallar, formulalar va adabiyotlarga havolalar keltirilmasligi kerak.

Kalit so‘zlar: kamida 10-15 ta so‘zdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi.

Аннотация: Аннотация к статье должна быть представлена на узбекском, русском и английском языках. Аннотация должна кратко отражать содержание статьи, включая актуальность исследования, цель, методологию, основные результаты и научно-практическую значимость исследования. Объём аннотации не должен превышать 100-150 слов. Текст аннотации оформляется в виде единого текста без использования цитат, таблиц, формул и ссылок на литературу.

Ключевые слова: рекомендуется указывать не менее 10-15 слов.

Abstract: The abstract of the article should be presented in Uzbek, Russian, and English languages. The abstract must briefly reflect the content of the article, including the relevance of the research, its purpose, methodology, main results, and scientific-practical significance. The abstract should not exceed 100-150 words and must be written as a single coherent text without quotations, tables, formulas, or references.

Keywords: it is recommended to provide at least 10-15 keywords.

KIRISH

Maqolaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti, qo‘llanilgan metodlar hamda maqolaning ilmiy yangiligi qisqacha bayon etilishi tavsiya etiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mazkur bo‘limda tadqiqot mavzusi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, mavjud nazariy yondashuvlar hamda ilmiy qarashlar tahlil qilinishi lozim. Tadqiqot davomida foydalanilgan adabiyotlar matn mazmuniga mos ravishda [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy metodlar, tahlil usullari, ma’lumotlar manbalari, tadqiqot obyekti va predmeti hamda metodologik yondashuvlar

yoritilishi zarur. Ushbu bo‘lim tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va natijalarning ishonchliligini ko‘rsatib berishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilmiy asosda tahlil qilinishi, ularning mazmun-mohiyati ochib berilishi hamda muammo yechimiga oid ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Tahlil jarayonida statistik ma’lumotlar, jadvallar, diagrammalar va boshqa tahliliy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Olingan natijalar mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy аҳамияти asoslab berilishi zarur. Ushbu bo‘limda keltirilgan fikr va ma’lumotlarga tegishli adabiyotlar [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi.

XULOSA

Mazkur bo‘limda tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu yuzasidan asosiy ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, ularning yechimiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar keltirilishi tavsiya etiladi. Xulosa qismida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, uning istiqboldagi ilmiy izlanishlar uchun ahamiyati ham qisqacha yoritilishi zarur. Mazkur bo‘lim aniq, qisqa va mantiqiy yakunlangan shaklda bayon etilishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mazkur bo‘limda maqola tayyorlash jarayonida foydalanilgan ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, konferensiya materiallari hamda internet manbalari tartib asosida keltirilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 ta manbaadan kam bo‘lmagan manba ko‘rinishida taqdim etishi shart. Bibliografik tavsif APA 7th Edition yoki Harvard uslubida rasmiylashtiriladi.

NASHR ETIKASI VA AKADEMIK HALOLLIK

Jurnal faoliyatida xalqaro nashriyot etikasi tamoyillari, jumladan COPE (Committee on Publication Ethics) tavsiyalariga amal qilinadi. Mualliflar tadqiqot natijalarining haqqoniyligi, ma’lumotlarning ishonchliligi hamda mualliflik huquqlariga rioya etilishi uchun mas’uldirlar.

Plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, mualliflikni noto‘g‘ri ko‘rsatish, bir tadqiqotni takroran nashr etish va boshqa akademik qoidabuzarlik holatlari maqolani rad etish uchun asos hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan hollarda ularning qo‘llanilishi maqolaning metodologik qismida ochiq ko‘rsatilishi lozim.

TAQRIZLASH VA NASHR ETISH TARTIBI

Jurnalga kelib tushgan barcha maqolalar dastlabki texnik ekspertizadan o‘tkaziladi hamda ilmiy talablarga mos kelgan maqolalar ikki tomonlama anonim taqrizlash (Double Blind Peer Review) jarayoniga yuboriladi. Taqrizchilar xulosasi asosida maqola qabul qilinishi, qayta ishlash uchun muallifga yuborilishi yoki rad etilishi mumkin.

NAMUNA

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmon. https://lex.uz
2. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (5th ed.). Sage Publications.

3. Abdullaev, A. A. (2024). Digital transformation in higher education. In Proceedings of the International Conference on Educational Innovation (pp. 145–152). Atlantis Press.
4. Hwang, G. J., Xie, H., Wah, B. W., & Gašević, D. (2020). Vision, challenges, roles and research issues of artificial intelligence in education. Computers and Education: Artificial Intelligence, 1, Article 100001. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2020.100001
5. Ashurov, R. R. (2026). O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari. Maktabgacha va maktab ta’limi, 4(2). https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/4847
6. UNESCO. https://www.unesco.org

(Maqola matni to‘liq Times New Roman 14 shriftda 1,15 intervalda tayyorlanishi kerak)

Maqola qo‘lyozmasini quyidagi manzillarga yuborishingiz mumkin:
Telegram manzil: https://t.me/fanlararotadqiqotlar yoki @sarhad_5

Rasmiy telegram kanali: https://t.me/fanlararoilmiytadqiqotlar

Jurnal sayti: https://fanlararotadqiqotlar.uz/

☑ **Biz bilan ilmiy hamkorligingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.**
JURNAL TAHRIRIYATI
https://t.me/fanlararotadqiqotlar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/